

# ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UN DAN FOYDALANISH

TUG`RISIDA SHARTNOMA № 350848

Kitob tumani

«20» yanvar 2022 y.

Kitob tuman elektr ta'minoti korxonasi, (tashkilot, korxonasi nomi) keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi M. Jorajev (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, bir tomondan va Kitob Davlat 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati (korxonasi, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rinlarda "Istemolchi" deb yuritiladi, O'zining nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi boshliq S. Kodirov (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## SHARTNOMANING MOXIYATI.

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha "Ta'minotchi" "Istemolchi"ning buyurtmanomasiga muvofiq ulangan tarmoq orqali elektr energiyasi yetkazib berishni o'z zimmasiga oladi, "Istemolchi" esa mazkur shartnomaning 1- ilovasida belgilangan kuvvatdagi elektr energiyasini qabul qilib olish va ilova qilinadigan jadval asosida byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidan haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Byudjet tashkilotining yil davomida smeta xarajatlariga kiritiladigan o'zgarishlar doirasida xizmat ko'rsatuvchi, xizmat oluvchilar tomonidan o'zaro kelishilgan holda shartnoma summasiga o'zgartirishlar kiritishga haqlidirlar.

1.3. Foydalanadigan elektr energiyasining yillik hajmi 21554 kVt. tashkil qiladi.

## II. TARAFLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

2.1. "Istemolchi"ning xukuklari:

a) "Ta'minotchi"dan shartnomada kursatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bulinish chegarasiga yetkazib berishni;

b) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini shartnoma

v) elektr energiyasi iste'molining oylik shartnomaviy miqdorini choraklik miqdori doirasida joriy chorak mobaynida 2-marta (1- va 2-oylarda ular tugaguncha 10 kundan kechikmay) qayta taksimlanishini "Ta'minotchi"dan talab qilishga haqlidir.

g) elektr tarmoqlarining bulinish chegarasida zarur sifatga muvofiq bulmagan elektr energiyasi yetkazib berilganda "Istemolchi" o'z xoxishiga ko'ra; muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bulmagan holda yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni va xaqini to'lashni rad etishga

d) "Ta'minotchi"dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani qoplanishini talab qilishga haqlidir.

2.2. "Istemolchi"ning majburiyatlari:

a) Xisobga olish joyi elektr tarmoqlarining "Ta'minotchi" bilan balans mansubligi buyicha bulinish chegarasiga o'tkazilsin (Istemolchi xisobga olinishi bulinish chegarasida amalga oshirilmagan vaziyatlarda);

b) elektr tarmoqlari, asbob uskunalarning tegishli texnik xolatini va xavfsizligini ta'minlash;

v) elektr energiyasini iste'mol qilishning urnatilgan tartibiga rioya qilish xamda elektr energiyasidan foydalanishda yuzaga keladigan avariya, yong'inlar, elektr energiyasini hisobga olish asboblardagi nosozliklar haqida "Ta'minotchi"ga xabar berish;

g) reaktiv energiya ishlab chiqaruvchi uskunalarning ish rejimiga rioya qilish ;

d) iste'mol qilinadigan elektr energiyasini hisobga olish asboblari va ulardagi tamg'alarning butligi va saqlanishini ta'minlash;

e) ishlatilgan elektr energiyasi uchun tulovlarni o'z vaktida amalga oshirish.

2.3. "Ta'minotchi"ning xuquqlari:

a) "Istemolchi"dan yetkazib beriladigan elektr energiyasi uchun oldindan tegishli xaqni to'lashini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob-kitoblarni amalga oshirishni;

b) shartnomaga yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni asossiz rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni "Istemolchi"dan talab qilishga haqlidir;

v) uning vakili tegishli amal qilish muddati bilan shaxsiy guvohnomasi mavjud bulganda elektr hisoblagichlarni kurib tekshiradi;

g) ma'naviy jixatdan eskirgan elektr energiyasini induksion hisobga olish priborlarini reja asosida Davlat tekshiruvidan o'tkazmaydi hamda UzR Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-noyabrdagi 512-sonli Qaroriga muvofiq ularni zamonaviy elektron hisoblagichlarga almashtirilishini talab qiladi.

2.4. Ta'minotchining majburiyatlari:

a) qonun hujjatlariga muvofiq ushbu shartnoma majburiyatlarini shu muddatda bajarilishini ta'minlash;

- b) "Iste'molchi"ga shartnomada kursatilgan miqdordagi elektr energiyasining elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga yetkazib berish;
- v) elektr tarmoklarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat kursatgichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda saqlash;
- g) elektr energiyasining "Iste'molchi"ga uzluksiz ("Elektr uskunalarining qurilma qoidalari" 1.2.17-bandi asosida) yetkazib berilishini ta'minlash; elektr tarmoqlarini rejali ta'mirlashda elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'grisida "Iste'molchi"ni kamida 3 sutka oldin o'g'xlantirish;
- a) elektr energiyasidan asossiz uzishga yul quyimaslik va "Iste'molchi"ga elektr energiyasi berishning rejadan tashqari tuxtatilishi sabablarini xabar qilish;
- j) "Iste'molchi"ga elektr hisoblagichlarining amaldagi normativ xujjatlar talablariga muvofik almashtirish muddatlarini xabar qilish;
- j) joriy etiladigan cheklashlar haqida cheklashning joriy etilish hajmi va vaqtini kursatgan holda 0,5 kun oldin xabar qilish;
- z) energiya tarifi o'zgarganda urnatilgan tartibda "Iste'molchi"ga bildirish.

### III. ELEKTR ENERGIYASINI NARXI VA XISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Shartnomaning tuzilgan vaqtdagi umumiy summasi 9699300 (to'qqiz million olti yuz to'qson to'qqiz ming uch yuz) sumni tashkil etadi.

2021-yil jami	1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr
<u>9699300</u>	<u>3499650</u>	<u>3499650</u>	<u>2700000</u>									

Elektr energiyasi tarifi bir stavkali, ikki stavkali, tabaqalashtirilgan stavkada belgilanadi. (zarur bo'lmagani uchiriladi)

Shartnoma bo'yicha yetkazib beriladigan elektr energiyasining tariflari shartnomaning 1-ilovasiga muvofik tarzda amalga oshiriladi. Shartnoma tuzilgan davrda 1 kilovatt elektr energiya tarif narxi 450 sumni tashkil etadi.

3.2. Navbatdagi oy uchun yetkazib berish nazarda tutilgan elektr energiyasi uchun tulov 100 foiz oldindan o'yning 25-sanasi gacha to'lanadi.

3.3. Yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun tulov pul o'tkazish yuli bilan xisob-kitob qilinadi.

3.4. "Iste'molchi"ning aybi bilan shartnomada kursatilgan xajmlarga nisbatan elektr energiyasi kam iste'mol qilinganda tularan avans mablag'lari qaytarilmaydi, balki iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun keying xisob-kitoblarda hisobga olinadi.

3.5. "Istemolchi" xar oyda bulinish chegaralarida urnatilgan hisobga olish priborlari kursatkichlarini yozib oladi. Ushbu kursatkichlar asosida o'lchov transformatorlari koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda iste'mol miqdori va foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lov summasi aniqlanadi.

Belgilangan shakldagi hisobot "Ta'minotchi"ga o'yning 25-sanasi gacha muddatda yuboriladi.

3.6. Xisob-kitob elektr hisoblagichi bo'linish chegarasida o'rnatilmagan taqdirda elektr tarmog'ining balans bo'yicha tegishlilik chegarasidan elektr hisoblagich o'rnatilgan joygacha elektr energiyasi yo'qotilishi miqdori "Iste'molchi" bilan birgalikda xisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi va to'lov uchun "Iste'molchi"ga berilgan foydali elektr energiyasi bilan jamlanadi.

3.7. Takdim etilgan belgilangan shakldagi hisobotga asosan "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga xisob-faktura yozib beradi.

Xar xil tarif guruhiga ta'aluqli bir necha obyektarga ega iste'molchilar bilan xisob-kitoblar xar bir tarif guruxiga urnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi, lekin shuning bilan birga xar bir obyekt bo'yicha bilib ko'rsatilgan bitta xisob-faktura yozib beriladi.

Qisman (tuliq hajmda emas) haq to'langanda, "Iste'molchi" to'lov hujjatida qaysi tarif guruhlari bo'yicha to'lov birinchi navbatda amalga oshirilayogani ko'rsatishi kerak. Aks holda, "Ta'minotchi" tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

Elektr energiyasi iste'moli haqida hisobot taqdim etilmaganda, elektr ta'minoti tashkiloti shartnomaviy elektr iste'moli hajmi bo'yicha xisob-kitob oyiga keyinchalik amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi bo'yicha qayta xisob-kitob qilgan holda xisob-kitobni amalga oshiradi. Ortiqcha tularan mablag'lar qaytarilmasdan avans tulovi tarikasida hisobga olinadi.

3.8. "Iste'molchi" tomonidan tegishli oyga yetkazib berilishi kuzda tutilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining 100 foizidan kam bo'lmagan miqdorida oldindan to'lov amalga oshirilganda elektr energiyasi xar oyday o'tkazib beriladi. Yakuniy xisob-kitob esa 30 kun davomida (yakuniy xisob-kitob muddati kursatilsin, lekin 30 kundan ortmasin) amalga oshiriladi. "Iste'molchi" da elektr energiyasi uchun 30 kundan ortiq

(muddati yuqorida ko'rsatilgan) muddati o'tgan qarzidorligi mavjud bo'lganda, avans tulovi tarikasida tulangan mablag'lar muddati o'tgan qarzidorlikni bartaraf etishga yunaltiladi va avans tulovi tariqasida hisobga olinmaydi. "Iste'molchi" bir necha tarif guruhiga ega bo'lsa, u oldindan tulov hujjatida tarif guruhi bo'yicha elektr energiyasi summasi va yoki miqdorini ko'rsatishi kerak. Aks holda, "Ta'minotchi" tarif guruhlari bo'yicha qarzidorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

#### **IV. ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNI QABUL QILIB OLISH TARTIBI.**

4.1. Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Elektr energiyasini yetkazib berish shartnomada yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomada ko'rsatilgan muddatlar va hajmlarda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. "Ta'minotchi" buyurtmanomalarni ruyxatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

4.3. "Iste'molchi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoki undagi elektr energiyasini yetkazib berish miqdori va sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Ta'minotchi"ni buyurtmanomada kursatilgan sana boshlanishidan joriy oy tamom bo'lishigacha kamida 10 kun oldin habardor qiladi.

#### **V. ELEKTR ENERGIYASI BERISHNI TUXTATISH VA UZIB QUYISH TARTIBI**

5.1. Elektr energiyasi berishdagi uzilishlarga, elektr energiyasini berishni to'xtatish yoki cheklashga tomonlar kelishuviga muvofiq yul quyiladi.

5.2. "Iste'molchi" bilan kelishmasdan va uni o'gohlantirmasdan, bir kunga darhol xabar bergan holda elektr energiyasi berishni vaqtincha uzib quyish, tuxtatish yoki cheklashga "Ta'minotchi" tizimida avariyaning oldini olish yoki uni tugatish uchun kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish zarur bo'lgan hollarda yul quyiladi.

5.3. Elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimi bo'zilganda; shartnomada nazarda tutilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining oldindan 100 foizini tulamaganda; xisob-kitob oyi tamom bo'lgandan keyin 30 kun mobaynida iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun to'lanmagan qarzi mavjud bo'lganda; "Iste'molchi" elektr energiyasi tarmog'iga o'zboshimchalik bilan ulanganda yoki quvvat shartnomada kelishilgan miqdordan oshirilganda; "O'zstandart" agentligi organlari tomonidan tekshirilgan iste'mol qilinadigan energiyani hisobga olish priborlariga ega bo'lmaganda; "Ta'minotchi"ning vakili soat 8.00 dan 20.00 gacha bo'lgan davr mobaynida hisoblash priborlarini ko'rishga asossiz quyilmaganda, "Ta'minotchi" elektr energiyasi berishni tuxtatib quyish huquqiga ega bo'ladi.

5.4. "Iste'molchi"da hisobga olish pribori bo'lmaganda; hisobga olish pribori "Iste'molchi"ning aybi bilan shikastlanganda; hisobga olish priborlarini ishga tushirish sxemasi o'zgarganda yoki hisoblagichdan tashqari nagro'zka ulanganda; foydalanilgan elektr energiyasi uchun haq belgilangan muddatlarda to'lanmaganda "Iste'molchi" 1 kun oldin o'gohlantirilib elektr energiyasi tarmog'idan o'zib quyiladi;

5.5. Elektr energiyasini o'zib quyish texnogen va avariya oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan, alohida havf va o'zluksiz texnologiya jarayonga ega bo'lgan iste'molchilarning tulov muddati o'tgan qarzlari vujudga kelgan taqdirda haqi tulanmaganligi uchun elektr energiyasi berilishini cheklash, belgilangan tartibda energiya bilan ta'minlashning texnologik va avariya brongacha, to'liq o'zib quyish esa faqat sud qaroriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. "Ta'minotchi" va "Iste'molchi" tomonidan imzolangan texnologik va avariya bronni dalolatnomalari shartnomaning uzviy qismi hisoblanadi.

#### **VI. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI**

6.1. Elektr energiyasi yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, 5 foizdan ko'p miqdorda elektr energiyasi yetkazib berilmagan hollarda "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan kismning 0,5 foizi miqdorida penya tulaydi, biroq penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan elektr energiyasi qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmashligi kerak. Penya tulanishi "Ta'minotchi"ni shartnomaning zarur darajada bajarilishidan va elektr energiyasi yetkazib berish kechiktirilganligi yoki tulik yetkazib berilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.2. Yetkazib berilgan elektr energiyasi haqini o'zvaqtida tulamagan uchun "Iste'molchi" "Ta'minotchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun tulov summasining 0,1 foizi (maxsus tartibga kura elektr energiyasi beriladigan korxonalar uchun 0,2 foiz) miqdorida, ammo kechiktirilgan tulov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya tulaydi.

6.3. "Iste'molchi"ning taklifiga ko'ra muljallanayotgan o'zgartirishlarga 10 kundan kech bo'lmagan muddatda kiritilgan elektr energiyasining shartnomadagi hajmlarining o'zgartirilishi elektr energiyasini kam olish yoki ortiqcha olish deb hisoblanmaydi.

6.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik va boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

#### **VII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga ko'ra ularni sudgacha hal etish yuzasidan tegishli choralarni ko'radilar.

Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni xal etish uchun bevosita ho`jalik sudiga murojaat qilishga ham haqlidir.

7.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o`zgartirishga yul quyilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

### VIII. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH

8.1. Tomonlardan biri shartnomani yengib bo`lmaydigan kuch, ya`ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo`lmaydigan vaziyatlar (zilzila, suvtoshqini, va boshqa tabiiy ofatlar) (fors-major) tufayli bajarmagan

### IX. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

9.1. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib G`aznachilik bo`linmasidan ruyxatdan o`tgan kundan boshlab kuchga kiradiva 2022 yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Mazkur shartnomaga o`zgartirishlar (qo`shimchalar) tomonlar imzolagan paytdan keyin bajarilishi kerak.

9.3. Mazkur shartnomaga har qanday o`zgartirish va qo`shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

9.4. Taraflar o`rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan taqdirda to`xtatiladi.

### X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko`ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda bo`zgan taqdirda, tomonlardan birining talabi b`yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, tomonlarning har biriga bir nusxadan qoldiriladi.

### XI. TOMONLARNING REKVIZITLARI.

#### "Ta`minotchi"

Kitob tuman Elektr ta`minoti

Manzili: Kitob t. B.Ipak yuli kuchasi

X/r- :22636000600177786352

Bank nomi: "Uzsanoatqurilish bank" ATB


Qashqadaryo mintaqaviy filiali

MFO: 00854

INN:200 666 494

IFUT-35120

Rahbar: \_\_\_\_\_



#### "Buyurtmachi"

Kitob Davlat 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati

Surum MFY Surum qishlog`i

INN: 203059701 IFUT: 85200

Shxr: 100021860102327092300075001

Markaziy bank BBXKKM, MFO-00014

O`zbekiston Respublikasi Moliya

Vazirligi G`aznachiligi INN:201122919

X/r-23402000300100001010


Rahbar: \_\_\_\_\_

Kodirov.S.H



Yurist vazisi: Men Kitob tuman Elektr ta`minoti korxonasining yuristi, ushbu shartnoma loyahasini amaldagi O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to`g`risida"gi Qonuni va boshqa qonun xujjatlariga talablariga mos kelishligini aniqladim:

«20» 01 2022 yil



\_\_\_\_\_ /  
(FIO)

2022 yil « 20 » yanvar dagi  
№ 350848 sonli shartnomaga  
1-sonli Ilova

Kitob tuman elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan 2022 yil davomida yetkazib  
beriladigan elektr energiyasi quvvati bo'yicha  
SPETSIFIKATSIYA

Vaqti	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
Yanvar	kVt	7777	450	3499650
Fevral	kVt	7777	450	3499650
Mart	kVt	6000	450	2700000
1-chorak	kVt	21554	450	9699300
Aprel				
May				
Iyun				
2-chorak				
Iyl				
Avgust				
Sentyabr				
3-chorak				
Oktyabr				
Noyabr				
Dekabr				
4-chorak				
Hammasi	kVt	21554	450	9699300

9699300 (To'qqiz million olti yuz to'qson to'qqiz ming uch yuz) so'm.

“Ta'minotchi”

Kitob tuman Elektr ta'minoti  
Manzili: Kitob t. B.Ipak yuli kuchasi  
X/r- :22636000600177786352  
Bank nomi: “O'zsanoatqurilishbank”  
ATB Qashqadaryo mintaqaviy filiali  
MFO: 00854  
INN:200 666 494  
IFUT-35120

Rahbar: \_\_\_\_\_



“Buyurtmachi”

Kitob Davlat 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati  
Surum MFY Surum qishlog'i  
INN: 203059701 IFUT: 85200  
Shxr: 100021860102327092300075001  
Markaziy bank BBXKKM, MFO-00014  
O'zbekiston Respublikasi Moliya  
Vazirligi G'aznachiligi INN:201122919  
x/r-23402000300100001010

Rahbar: \_\_\_\_\_

Kodirov.S.H

